



## INKLYUZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI

*Raxmanova Lobar Jaloliddin qizi*

*UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES*

*universiteti pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 kurs talabasi*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limni tashkil qilishda kadrlar masalasi, inklyuziv sinf o'qituvchilari, resurs o'qituvchi hamda ijtimoiy pedagogning inklyuziv ta'linda tutgan o'rni, vazifalari shuningdek ularga qo'yiladigan talab va ko'nikmalar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, inklyuziv sinf o'qituvchisi, resurs pedagog, Institutional muassasalar, psixonevrolog, o'qituvchi-defektolog.

**ABSTRACT.** This article provides detailed information on the issue of personnel in the organization of inclusive education, the role and tasks of inclusive class teachers, resource teachers and social pedagogues in inclusive education, as well as their requirements and skills.

**Key words:** Inclusive education, inclusive class teacher, resource pedagogue, Institutional institutions, psychoneurologist, teacher-defectologist.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена подробная информация по кадровому вопросу в организации инклюзивного образования, роли и задачам учителей инклюзивного класса, ресурсных педагогов и социальных педагогов в инклюзивном образовании, а также их требованиям и навыкам.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, учитель инклюзивного класса, ресурсный педагог, Институциональные учреждения, психоневролог, педагог-дефектолог.

## KIRISH

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda pedagoglarning o'rni beqiyos. Inklyuziv ta'linda o'qituvchi-pedagogga yuklatilgan vazifa ikki karra oshadi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash, ularni kayfiyatiga qarab muomala qilish, kasbga yo'naltirish, qiziqishlari bilan ishlashning



o'zi katta mahorat talab qiladi. Inklyuziv ta'lism o'qituvchilari har soha bo'yicha yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishi, maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan muloqot qilganda qiyinchiliklarga duch kelmasligi va eng muhimi har bir bola bilan shug'ullana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Inklyuziv ta'lism jamoaviy ish bo'lib, javobgarlik butun maktab va maktabgacha ta'lism muassasalari jamoasi zimmasiga yuklatiladi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lism pedagogik kvalifikasiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Ulardan bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda sabr va mahorat kabilar ham talab qilinadi. Og'ir vaziyatlarda o'zini tuta olishi, iloji boricha bolalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi lozim.

## MATERIAL VA USULLAR

Inklyuziv ta'lism jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rin egallaydi. Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boishqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mash'gulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida ish olib borishi kerak.

Umumta'lism maktablarida inklyuziv ta'lismni joriy etilish bilan oxirgi yillarda maktab kontingenti o'zgarib, 1-sinfga qabul qilingan bolalar orasida nutqida nuqsoni bor bolalar ko'payib bormoqda. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar orasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar (alaliya, dizartriyaning og'ir ko'rinishlari) maxsus maktablarda (nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktablarda) ta'lism—tarbiya olishlari lozim. Lekin, inklyuziv ta'lism muammosi bilan shug'ullanayotgan olimlar va mutaxassislar bunday bolalar umumta'lism maktablari o'qishlari va ularga tizimli ravishda maqsadga yo'naltirilgan logopedik yordam ko'rsatilishi lozim degan fikrlarni ilgari suradilar.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, inklyuziv sinf o'qituvchisidan ikki karra ko'proq ishslash talab etiladi ya'nu u maktab ustavida belgilab qo'yilgan vazifalardan



tashqari yana bir nechta mas'uliyatlarni ham o'z zimmasiga olgan holda faoliyat yuritadi. Inklyuziv sinf o'qituvchisi quyidagi vazifalarni ham bajarishi kerak:

- ✓ Inklyuziv sinfda tarbiyalanayotgan bolalar ruhiy va jismoniy holatini o'rganib, uni korreksiyalash;
- ✓ Bolalar faolligi va qiziqishini oshirish uchun interfaol metod usullaridan foydalanadi;
- ✓ Bolalarda diqqatni jamlash va sinchkovlikni shakllantirish;
- ✓ Bolalarni bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish.

Inklyuziv ta'limga tarbiyachining o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologik-pedagogik jihatdan o'r ganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha otaonalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi. Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'limtarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi. zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, otaonalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Inklyuziv ta'limga maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchining ham o'rni bo'lak. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:



Har bir bolani qay darajada yordamga muhtojligini aniqlab, ular bilan muntazam ravishda muloqotda bo'lish, o'quv rejalarini o'zgartirish, muvaffaqiyatlarni qayd etib borish, zarur bo'lsa seminar va konferensiyalarga olib borish.

## XULOSA

Inklyuziv ta'lilda kompleks yondashishi tamoyiliga ko'ra nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirishni, uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'lilda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Bu esa inklyuziv ta'lilda faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislarning kompleks, hamkorlikda yondoshib olib borilgan ishlari natijasida amalga oshirilishi mumkin.

## ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.



5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руций таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.